

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**HAYITOVA ZILOLA MAXMUDJONOVNA**

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARI  
KASBIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
psychological sciences**

**Hayitova Zilola Maxmudjonovna**

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatini shakllantirishning  
pedagogik-psixologik omillari ..... 3

**Хайитова Зилола Махмуджоновна**

Педагогические и психологические факторы формирования профессиональной  
деятельности учителей начальных классов .....27

**Hayitova Zilola Maxmudjonovna**

Pedagogical and psychological factors in the formation of professional  
activities of primary school teachers .....41

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

**Список опубликованных работ**

List of published works .....47

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**HAYITOVA ZILOLA MAXMUDJONOVNA**

**BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARI  
KASBIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/P1225 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.psi-ik.uz](http://www.psi-ik.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar**

**Jo‘rayeva Saxibjamol Norqobilovna**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdurasulov Rustam Abduraimovich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Maqsadova Mexriniso Sayxanovna**  
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi phd.03/30.12.2021.p.26.02 raqamli ilmiy kengash 2025-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**F.A. Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, psixologiya fanlari doktori,  
professor

**N.B. Atabayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori,  
professor

**Z.T. Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'lim sifatini ta'minlash uchun boshlang'ich ta'lim va unga mas'ul bo'lgan o'qituvchilarning salohiyati, kompetensiyaviy yondashuvlari, kasbiy faoliyatidagi innovatsion texnologiyalar asosidagi kompleks tarzda mexanizmlarini takomillashtirish hamda ijtimoiy faollikni oshirish modellarini yaratish zarurati ustuvor omillar sifatida belgilanmoqda. Jahon miqyosida har yili 7% shaxslarning turli hayotiy vaziyatlar tufayli o'z kasblarini boshqa kasblarga o'zgartirishga majbur bo'lishi tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Xalqaro huquqiy maqomdagi «Pew research cyenter» agentligining bergan ma'lumotiga ko'ra<sup>1</sup>, 59% pedagog xodimlarda kasbga qo'yilgan talablarning ortishi hamda faoliyatda shaxslararo munosabatlarning murakkablashuvi tufayli o'z kasbini o'zgartirishga qaror qilishi holatlari aniqlangan. Bu borada, boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari bilan bog'liq masalalar dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari bilan bog'liq masalalar, jumladan, mazkur toifa o'qituvchilarining o'sib ulg'ayotgan yosh avlodni to'g'ri baholay olishi, ulardagi zamonga mos zukkolikni, axborot-texnologiyalardan xabardorlik darajalarini hisobga olish - ustuvor yo'nalishlardan bo'lib qolmoqda. Germaniya, Fransiya, Shveysariya, Yaponiya, Koreya, Rossiya Federatsiyasida, Finnish Higher Pedagogical Institute, China Vocational Adaptation Cyenter, International Japanese Foundation, International Institute of Planning and Educations Cyenter kabilarda raqobatbardosh o'qituvchi-tarbiyachilarning kasbiy faoliyatining sifat-samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan dasturlar, amaliy loyihalarni amalga oshirish masalalari muhim o'rin egallamoqda, mazkur fenomenni o'rganish va ilmiy tadqiq etishga yo'naltirilgan masalalarga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya tizimiga oid qator islohotlar tufayli, yurtimiz kelajagi uchun mas'uliyatli, yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratilib, zarur me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi: «Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash»<sup>2</sup> muhim vazifa sifatida belgilab berilgan bo'lib, bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillarini ilmiy-tadqiq etishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston–2030» Strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan

<sup>1</sup> [https://www.pewresearch.org/social-trends/2024/04/04/teachers-job-satisfaction/?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.pewresearch.org/social-trends/2024/04/04/teachers-job-satisfaction/?utm_source=chatgpt.com)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 avgustdagi 490-son «Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori/<https://lex.uz/docs/5550539>.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 6-noyabpdagi PF-6108-con “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 2-maydagi QL-1010-son «Pedagog xodimning maqomi to‘g‘risida»gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston psixolog olimlaridan T.M.Adizova, F.A.Akramova, Sh.R.Baratov, L.S.Beknazarova, G.Berdiyev, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, Z.P.Qlicheva, A.I.Rasulov, E.G‘.G‘oziyev, G.B.Shoumarov, Z.Sh.Sherimbetova va boshqalar tomonidan boshlang‘ich ta‘lim tizimi sifat-samaradorligini oshirish hamda ta‘lim tizimida psixolog faoliyatini tashkil etishning nazariy-ilmiy masalalari o‘rganilgan. F.F.Ganjiyev «Maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilarida kasbiy kompetentlik shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari», Sh.J.Bekova “Maktabgacha yoshdagi bolalar kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari”, G.A.Yakubova “Maktabgacha yoshda kognitiv rivojlanishga deprivatsiya ta‘sirining psixologik xususiyatlari” hamda bolalar psixologiyasi, maktabgacha ta‘lim faoliyatini takomillashtirish masalalariga doir ishlarni Sh.Do‘stmuhamedova, K.Qodirov, R.Sunnatova, S.To‘ychiyeva, A.K.Shamshetovalar kasbiy rivojlanishiga ta‘sir etuvchi psixologik omillarini aniqlash masalalari alohida tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari pedagog va psixolog olimlaridan S.A.Azarenko, A.B.Dobrovich, G.A.Faller S.V.Kondrateva, O.V.Lishin, E.H.Mananikova, T.N.Razuvayeva, A.P.Smanser, S.B.Yelkanov, I.P.Shkuratova va boshqalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchi shaxsining shaxslararo munosbat shakllari, o‘quvchining maktab muhitiga adaptatsiya qilish jarayoni, boshlang‘ich sinf o‘qituvchi shaxsining xarakter xususiyatlari masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Xorijiy tadqiqotchilardan S.Dalfen, R.C.Graig, H.Jehrens, J.Piaje, M.Rothbatt va boshqalar boshlang‘ich ta‘lim tizimida psixologlarning faoliyati, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining qoniliyatlari, kasbiy faoliyatidagi imkoniyatlari va o‘qituvchi-o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini ilmiy tadqiq etishgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.**

Dissertatsion tadqiqot Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan PZ-20170923121-raqamli «Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2018-2020-yy.).

**Tadqiqotning maqsadi.** boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillarini o'rganish va taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatining sifat-samaradorligini belgilovchi omillarini hamda kommunikativ maydondagi holatni aniqlash;

boshlang'ich sinf o'qituvchilari sinflar tomonidan qabul qilingan taasurotlari o'rganilib va boshlang'ich sinf o'qituvchi-o'quvchi munosabat tizimi samaradorligini belgilovchi omillarini baholash;

boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi shaxs xususiyatlarini o'rganish;

boshlang'ich sinf o'qituvchilar kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlashga doir psixotrening dasturi ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida boshlang'ich sinf o'qituvchi kasbiy faoliyatini o'rganish maqsadida Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumani 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabidan 26 nafar, 6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabidan 28 nafar, Termiz shahridagi 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabidan 26 nafar, Qiziriq tumani 4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabidan 44 nafar, Toshkent shahri M.Ulug'bek tumanidagi 187-maktabidan 31 nafar, Toshkent shahri M.Ulug'bek tumanidagi 49-sonli umumiy o'rta maktabidan 25 nafar, Sergeli tumanida joylashgan 351-umumta'lim maktabidan 25 nafar, Qibray tumanida joylashgan 46-umumta'lim maktabidan 18 nafar, Toshkent shahri M.Ulug'bek tumanidagi 25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablari 20 nafar jami 232 nafar respondentlari jalb etildi.

**Tadqiqot predmetini:** boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari, kasbiy faoliyatini ta'minlovchi shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlari, Xollandning "Kasbiy faoliyat diagnostikasi" testi, "O'qituvchi-o'quvchi" so'rovnomasi, R.B.Kettellning 16 faktorli shaxs so'rovnomasi, L.P.Kalininskiyning "Shaxsning tashkilotchilik va kommunikativlik sifatlarini baholash" metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonshlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, Spirmanning r-korrelyasiya koeffitsiyentini qo'llash orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatining sifat va samaradorligini belgilovchi psixologik-pedagogik omillar qatorida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ interfaza, shuningdek, subyektiv kommunikativ maydon doirasida shakllanuvchi "O'qituvchi imiji"ning psixologik determinantlari aniqlangan;

boshlang'ich sinf o'qituvchi shaxs xususiyatlari, hissiy barqarorlik, sabrlilik, yumor hisi, haqqoniylik, ijtimoiy dadillik, kirishimlilik, o'qituvchi-o'quvchi munosabat tizimi samaradorligini belgilovchi omillarni baholash mumkinligi isbotlangan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi o'ziga ishonish, "o'z-o'zini nazaorat qilish", bolaparvar, to'g'ri tushuntira olish, shaxs xulqiy xususiyatlari o'rganilib keyinchalik kasbiy faoliyat samaradorligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatilishi dalillangan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilar kasbiy faoliyatida o'qituvchi bilan o'quvchi o'zaro munosabatlari samaradorligini ta'minlashga, hissiy barqarorlik, sabrlilik, haqqoniylik, ijtimoiy dadillik, kirishimlilik, o'ziga ishonish, o'z-o'zini nazaorat qilish, to'g'ri tushuntira olishni shakllantirishga doir psixotrening dasturi boshlang'ich sinf o'qituvchilar kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga erishganligi isbotlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatining sifat-samaradorligini belgilovchi omillar sifatida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida psixologik mexanizmlarini o'rganishga doir test va so'rovnomalar amaliyotga joriy etilgan;

boshlang'ich sinf o'qituvchi shaxs xususiyatlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, boshlang'ich sinf o'qituvchi-o'quvchi munosabat tizimi natijalari kontent tahlil qilingan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga doir trening tayyorlangan va uning samaradorligi amaliyotda sinovdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoning aniq qo'yilganligi; ilmiy jihatdan asoslangan, psixologiya yo'nalishida amaliyotchi mutaxassislar tomonidan keng qo'llanuvchi metodik vositalar, matematik statistikaning «Ms Excel», SPSS Statistics 20 dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; respondentlar tanlanma to'plamining hajmi psixologik tadqiqotlarda tavsiya etilgan talablar asosida ishlab chiqilganligi; ilmiy-nazariy tahlil, natijalar sharhini ishonchli manbalarga asoslanganligi; asosiy holatlar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatining samaradorligi oshirish bo'yicha tayyorlangan trening dasturini ishlab chiqish bilan belgilanadi, bundan tashqari boshlang'ich sinf o'qituvchi shaxs xususiyatlari, boshlang'ich sinf o'qituvchi-o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ta'sirchanligi, to'g'risidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, shuningdek, tadqiqot materiallari boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatining sifat-samaradorligini oshirish to'g'risidagi ilmiy bilimlarni hamda «Pedagogik psixologiya», «Ijtimoiy psixologiya», «Ta'lim tizimida psixologik xizmat», «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya», «Psixodiagnostika», «Psixologik maslahat» kabi fanlarni ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot doirasida treninglar majmuini umumiy oʻrta taʼlim maktabi muassasalarida amaliyotiga tadbiiq etilishi orqali, boshlangʻich sinf oʻqituvchi shaxsiga psixologik jihatdan mukammal yondashishda, ularda kasbiy faoliyatining sifat-samaradorligini shakllantirishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin. Shu bilan birga, amaliy faoliyatda boshlangʻich taʼlim oʻquv faoliyatni faollashtirishda, boshlangʻich sinf oʻqituvchilari kasbiy faoliyatining sifat-samaradorligini oshirishda, boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatini tashkil etishda, maktabgacha va boshlangʻich taʼlim pedagoglar faoliyati samaradorligini taʼminlovchi oʻquv-uslubiy koʻrsatmalar ishlab chiqishda, psixologik maslahat, psixologik xizmat, psixodiagnostika, psixokorreksiya vazifalarini amalga oshirishda tadqiqot ishi natijalari va metodik materiallari manba boʻlib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Boshlangʻich sinf oʻqituvchilari kasbiy faoliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillariga doir tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar asosida:

boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kasbiy faoliyatining sifat va samaradorligini belgilovchi psixologik-pedagogik omillar qatorida oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi kommunikativ interfaza, shuningdek, subyektiv kommunikativ maydon doirasida shakllanuvchi “Oʻqituvchi imiji”ning psixologik determinantlari aniqlanganligiga oid maʼlumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-275-sonli buyrugʻi bilan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-275-sonli maʼlumotnomasi). Natijada boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kasbiy faoliyatining sifat-samaradorligini belgilovchi omillarni hamda kommunikativ zonasidagi holatni aniqlash imkoniyati yaratilgan.

boshlangʻich sinf oʻqituvchi shaxs xususiyatlari, hissiy barqarorlik, sabrlilik, yumor hisi, haqqoniylik, ijtimoiy dadillik, kirishimlilik, oʻqituvchi-oʻquvchi munosabat tizimi samaradorligini belgilovchi omillarni baholash mumkinligi isbotlanganligiga doir maʼlumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-275-sonli buyrugʻi bilan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-275-sonli maʼlumotnomasi). Natijada boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida sinflar tomonidan qabul qilingan taasurotlari, boshlangʻich sinf oʻqituvchi-oʻquvchi munosabat tizimi samaradorligini belgilovchi omillari baholangan.

boshlangʻich sinf oʻqituvchilari kasbiy faoliyat samaradorligiga taʼsir etuvchi oʻziga ishonish, “oʻz-oʻzini nazaorat qilish”, bolaparvar, toʻgʻri tushuntira olish, shaxs xulqiy xususiyatlari oʻrganilib keyinchalik kasbiy faoliyat samaradorligiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatilishi dalillanganligiga doir maʼlumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2024-yil 7-

dekabrdagi PM-275-sonli buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrdagi PM-275-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi shaxs xususiyatlarini o‘rganish imkoniyati ochib berilgan;

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar kasbiy faoliyatida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘zaro munosabatlari samaradorligini ta‘minlashga, hissiy barqarorlik, sabrlik, haqqoniylik, ijtimoiy dadillik, kirishimlilik, o‘ziga ishonish, o‘z-o‘zini nazaorat qilish, to‘g‘ri tushuntira olishni shakllantirishga doir psixotrening dasturi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga erishganligi isbotlanganligiga doir ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrdagi PM-275-sonli buyrug‘i bilan «Psixologik korreksiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrdagi PM-275-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar kasbiy faoliyati samaradorligini ta‘minlashga doir psixotrening tadbirlarini ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 3 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, ush bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning hajmi 136 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyatining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyatining pedagogik-psixologik jihatidan o‘rganish zarurati va dolzarbligi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyatining psixologik muammosi sharq va g‘arb psixologlari tomonidan o‘rganilganligi hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini kasbiy

faoliyatdagi o'zni masalalari, ilmiy- nazariy tahlillari batafsil yoritilib berilgan. Hozirgi kunda 60110500 - Boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanishi, yosh avlodga boshlang'ich bilimlarini berishda dastlab boshlang'ich sinf o'qituvchining bilim, malaka va ko'nikmalari zamon talabi darajalarida bo'lishi muhim ahamiyati umumlashtirilgan.

Xorijiy olimlardan R.C.Graig, J.Piaje, W.H.Jehrens, M.Rothbatt va boshqalar boshlang'ich ta'lim tizimida psixologlarning faoliyati, boshlang'ich sinf o'qituvchisining qoniliyatlari, kasbiy faoliyatidagi imkoniyatlari va o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro munosabatlari haqidagi ilmiy-tadqiqot izlanishlariga sharhlar berilgan.

MDX olimlaridan S.A.Azarenko, A.B.Dobrovich, G.A.Faller S.V.Kondrateva, O.V.Lishin, E.H.Mananikova, T.N.Razuvayeva, A.P.Smanser, S.B.Yelkanov, I.P.Shkuratova boshlang'ich sinf o'qituvchi shaxsining shaxslar aro munosbat shakllari, o'quvchining maktab muhitiga adaptatsiya qilish jarayoni, boshlang'ich sinf o'qituvchi shaxsining xarakter xususiyatlarini masalalari yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borishgan.

O'zbek olimlaridan boshlang'ich ta'lim tizimi sifat-samaradorligini oshirish hamda ta'lim tizimida psixolog faoliyatini tashkil etishning nazariy-ilmiy masalalari, xususan, o'qituvchi va o'quvchi psixologiyasiga oid masalalarni T.M.Adizova, F.A.Akramova, Sh.R.Baratov, L.S.Beknazarova, G.Berdiyev, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, Z.P.Qlicheva, A.I.Rasulov, E.G.G'oziyev, G.B.Shoumarov, Z.Sh.Sherimbetova va boshqalar tomonidan tadqiqot olib borishgan.

Sharq mutafakkirlarni ishlaridan, ya'ni Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, A.Navoiy va boshqa bir qator olimlar fikrlariga sharhlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatini tadqiq etish usullari”** deb nomlangan bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatini psixodiagnostik o'rganish metodlari, boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchilari munosabatlarini tadqiq etish metodologiyasi va boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatini o'rganish bosqichlari, tashkiliy ishlari keltirilgan. Respondentlarda boshlang'ich sinf o'quv xonalari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va dars mashg'ulotlari va o'quvchilari to'liq kuzatilganligi hamda ularning tahlili berilgan. Tadqiqot davomida olib borilgan metodikalar tasnifi ham berilgan. Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilaridan 296 nafar o'quvchilar ham ishtirok etgan edi. Ularning natijalari sinflar va umumiy o'rtacha qiymat bo'yicha hisoblandi. Olingan natijalarga ko'ra aytib o'tish joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qituvchi to'g'risidagi tasavvurlarida o'ziga xoslik kuzatildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tasavvuridagi o'qituvchi timsolini o'rganish uchun “O'qituvchi o'quvchilar nigohida” anketasidan foydalandik. Ushbu anketa boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qituvchilarga munosabatini o'rganish anketasining modifikatsiya qilingan shakli bo'lib, unda o'qituvchining pedagogik faoliyati, kasbiy faoliyati va shaxsiy fazilatlarini o'rganish nazarda tutildi.

1-jadvalda o'quvchilarning o'qituvchilari shaxsiga eng yuqori baholarni o'qituvchining bilimligiga (4,89) va rostgo'yligiga (4,79) qo'yganlar. Bundan ko'rinadiki, o'quvchilar o'qituvchilarini eng bilimli, ko'p narsadan xabardor, boshqa insonlar bilmaydigan narsalarni biladigan va tushunadigan inson sifatida idrok qilar ekan. Bundan esa ma'lum bo'ladi, boshlang'ich sinflarda o'qituvchi tomonidan beriladigan har bir ma'lumot va uning ko'rsatmalari o'quvchilar uchun eng ishonchli va to'g'ri deb qabul qilinadi. Bunda o'quvchilar o'qituvchining kasbiy komponenti – bilimligi bilan uning shaxsiy fazilati – rostgo'yligini o'zaro bog'langan holda baholay olganlar.

**1-jadval.**

**O'quvchilar tasavvuridagi o'qituvchi timsoli  
ko'rsatkichlari (natijalar 5 – ballik tizimda, n=296 )**

T/r	Fazilatlar	Sinflar				Umumiy o'rtacha ball
		1-sinf (n=74)	2-sinf (n=74)	3-sinf (n=74)	4-sinf (n=74)	
1	Bilimli	5,00	4,92	4,85	4,80	4,89
2	Rostgo'y	5,00	4,80	4,71	4,66	4,79
3	O'ziga ishongan	5,00	4,70	4,68	4,64	4,75
4	Qattiqqo'l	4,77	4,65	4,34	4,30	4,51
5	Adolatli	4,52	4,56	4,50	4,31	4,47
6	O'quvchilarni tushunadigan	4,68	4,36	4,21	4,36	4,40
7	Mehribon	4,78	4,24	3,98	3,66	4,16
8	Talabchan	5,00	4,32	3,78	3,42	4,47
9	Muloyim	4,66	4,45	4,22	4,10	4,35
10	Quvnoq tabiatli	4,02	3,61	3,54	3,21	3,6
11	Xushmuomala	3,96	3,87	3,30	3,42	3,63
	Umumiy o'rtacha ball	4,67	4,41	4,19	4,08	-

Shuningdek, o'quvchilar o'qituvchilarining yuqoridagi ikki xususiyatlari bilan bir qatorda uning irodaviy xususiyatlarining ahamiyatini ham ko'rsata olganlar, ya'ni o'qituvchi ularning tasavvurida o'ziga ishongan shaxs (4,75) sifatida qabul qilingan. Bu esa o'quvchilar o'qituvchilarini boshlang'ich sinflarda "ideal" inson sifatida qabul qilishlariga imkon beradi.


Tadqiqotda o'quvchilar o'qituvchining quvnoq tabiatlilik (3,6) va xushmuomalalilik (3,63) sifatlarini boshqa fazilatlariga nisbatan quyi baholaganlar. O'qituvchining ushbu ikki shaxslilik sifatleri aslida o'quvchilarning qalbidan joy olishlariga yordam beruvchi xususiyatlar bo'lishi lozim edi, chunki o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi munosabat muallimning shogirdlariga samimiy, iliq va o'ziga yaqin kishi sifatida qabul qilishida gavdalanadi.

Biz tadqiqotimizda o'qituvchi timsoli yuzasidan o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish bilan bir qatorda o'qituvchilarning ayrim shaxs sifatidagi timsollarini o'rganish uchun R.B.Kettellning "Shaxsni o'rganishning 16 omilli

so‘rovnomasi” dan foydalandik. Bu metodikaning mahalliy muhitimizda ko‘p bora qo‘llanilgan va psixodiagnostik talablarga javob beradi. Metodikaning natijalarini sharhlashda aynan o‘qituvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib tadqiq etilgan, (1-rasm)da natijalar berilgan.

### 1. Muloqotga moyillik.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining “muloqotga moyillik” (kirishimlilik) ko‘rsatkichi turli ish stajiga ega bo‘lganlar uchun deyarli bir xil darajada bo‘ldi. Jumladan, ish staji 10 yilgacha bo‘lganlarda (6,45) va 10 yildan ortiq bo‘lganlarda (6,77) bo‘ldi. Bu esa, ularning o‘quvchilar bilan hamkorlik qilishga tayyor, diqqat e‘tiborli, bo‘lar – bo‘lmasga qattiq g‘azablanish yoki xursand bo‘lish holatlariga tushmasliklarini bildiradi. Bunday sifatlarga ega bo‘lish esa o‘qituvchilarning kasbiy kamolotiga qo‘yiladigan eng asosiy talablardan biri hisoblanadi. Bu sifatlarga ko‘proq ish staji 10 yil va undan yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar ega.



**1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari shaxsiga xos xususiyatlar.**

Shuningdek, ular o‘z xulqini boshqara olish qobiliyatiga ega, rahmdil va samimiy, lekin talabchandir. Ammo o‘qituvchilarning talabchanligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun to‘g‘ridan – to‘g‘ri bo‘lishi kerak emas, chunki ko‘pchilik bolalarning ta‘lim jarayoniga moslashuvi va muloqotga o‘rganishida komplekslarga moyillari uchraydi. Bu esa o‘qituvchilarning talabchanligini to‘g‘ri qabul qilishga olib kelmaydi.

### 2. Hissiy barqarorlik – beqarorlik.

O‘qituvchilarning hissiy barqarorlik ko‘rsatkichlari ular o‘z hislarini va kayfiyatini boshqara olishi ((5,63) (10 yilgacha)) va (6,33) (10 yildan yuqori)) dan dalolat beradi. Ular “Men” ining kuchi yuqoriroq bo‘lib, bu “Men” konsepsiyasining ijobiy bo‘lishiga olib keladi. Ular pedagogik faoliyatda ma‘lum darajada muvaffaqiyat bilan ishlashlari mumkin. Agarda ularda hissiy barqarorlik yanada yuqori darajada bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

### 3. Hukmronlikka intilish – tobelik.

Shuningdek, o'qituvchilarning ushbu ko'rsatkichlariga ko'ra ((6,63) (10 yilgacha)) va ((6,55) (10 yildan yuqori)) ularni atroflaridagi odamlar ta'siriga to'la beriladi, deb aytib bo'lmaydi. Ko'proq ularning "Men – konsepsiyasi"dagi ijobiylik kasblari ta'siri bilan bog'liq. Ular o'zlarining munosabatlari bilan bir vaqtda atrofdagilarning talabini ham hisobga olar ekanlar. Bundan ko'rinadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida avtoritarlikdan ko'ra kollegial tipdagi boshqaruv usuliga tayanish ancha samarali bo'lishi mumkin.

### 4. Ijtimoiy yetuklik, onglilik.

O'qituvchilar, xususan, boshlang'ich sinfda tahsil berayotgan pedagoglar ta'lim-tarbiya muhitining eng faol sub'yektlari sanaladilar. Ular tomonidan tashkil etilayotgan psixologik ta'sir muhiti hamda shaxslararo munosabat ijtimoiy me'yorlar hamda onglilik tamoyiliga to'lig'icha mos kelishi lozim. Yuqoridagi natijalardan farqli o'laroq o'qituvchilarning ijtimoiy yetuklik, onglilik ko'rsatkichlari o'rtacha darajadagi miqdoriy qiymatlarga egaligi bilan ((4,81) (10 yilgacha)) va ((4,88) (10 yildan yuqori)) ularning hayotga va ishga yengil qarash, javobgarlikni his qilmaslik, tejamkorsizlik kabi xislatlardan to'la ozod emasliklarini ko'rsatmoqda. Ammo, bunday holat ularning "Men – konsepsiyasi" salbiy ekanligini ko'rsatmaydi, balki o'z xulqini boshqara olish va qa'tiylikning yetarli emasligi oqibati bo'lib hisoblanadi. Ular har qalay, umuminsoniy qadr-qimmatlarni tan olishga va axloq qoidalariga rioya qilishga intiluvchi shaxs sifatida mavqega egadirlar. Ulardagi mas'uliyatning to'laqonli shakllanmaganligi oilaviy muammolari bilan bog'liq yumushlar ta'siri ham bo'lishi mumkin.

### 5. Ijtimoiy mardlik (dadillik – tortinchoqlik).

O'qituvchilarning ijtimoiy dadillik bo'yicha ko'rsatkichlar ((5,45) (10 yilgacha)) va ((4,66) (10 yildan yuqori)) pedagogik faoliyat uchun eng maqbul ko'rsatkichdir. Ular yetarli darajada jasur, odamlar bilan aloqaga erkin kirisha oladilar, muomaladagi qiyinchiliklarni yenga oladilar, kutilmagan holatlarga tushib qolganlarida o'zlarini yo'qotmaydilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining ish tajribalarida ijtimoiy mardlik uchun zarur xususiyatlarni shakllantirganlar, deyishga haqlimiz. O'qituvchi timsolidagi bu sifat ularning o'quvchilar bilan munosabatini ijobiy tashkil etishga xizmat qilishi shubhasiz.

### 6. Ishonuvchanlik – shubhalanish.

O'qituvchining faoliyati doimo aqliy mehnatga tayangani bois, ular vaziyatlarni mantiqan hal etishga ancha moyildirlar ((5,9) (10 yilgacha)) va ((7,0) (10 yildan yuqori)). Shu sababli ularning atrofdagilar bilan hamda o'quvchilar munosabatida shubhalanishdan ko'ra ishonchga xayrixohliklari ijobiy hol. Ularning aqlga asoslanib ishonishlari faoliyatlarining samarali bo'lishiga olib keladi. Kundalik turmushda ham insonlar o'zlarining boshlang'ich sinfda o'qitgan o'qituvchilarining ta'sirlarini doimo eslashadi va ularga o'zlarining cheksiz hurmatini saqlab qolganliklarini bildiradilar. Yuqoridagi o'quvchilarni o'qituvchilarini timsoliga bergan baholarida ham ularga ishonch bilan qarashlari aynan shu tuyg'ularning haqqoniylikka asoslanganligidan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

### 7. O'ziga ishonch – ishonmaslik.

Deyarli yuqoridagi barcha shkalalar bo'yicha o'qituvchilarning ish tajribalariga ko'ra ko'rsatkichlari bir xil darajadan o'rin olgan edi. Yuqoridagi shkalalardan farqli o'laroq ushbu shkalada (( 3,88 ) (10 yildan yuqori)) ko'rsatkichlar pasayganligini kuzatish mumkin. O'qituvchilarning o'ziga ishonchi ancha yuqori bo'lar ekan. Ular qat'iy o'zlariga ishonadilar, ularni "o'zdan" chiqish holatiga olib kelish qiyin. Ular atrofdagilar va hamkasblari ta'siriga berilmaydilar, bu esa ularni ba'zan atrofdagilarga yoqmasligiga olib kelishi mumkin. Ularning haddan tashqari o'ziga ishonishlari va ta'sirga berilmasliklari, faoliyatlari uchun maqsadga muvofiq emas. O'z o'rnida hamkasblarining munosabatlari yoki o'quvchilarning munosabatlariga ham quloq solishlari talab etiladi.

Tadqiqotda o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatidagi pedagogik uslubini uning shaxsiy fazilatlarini bilan uyg'unlikda o'rganishni ham e'tiborga oldik. Buning uchun o'qituvchining pedagogik uslublarini taqqoslash orqali o'rganishni lozim topdik. Ushbu masala tadqiqotimizning asosiy masalasida ko'zda tutilmagan bo'lsa-da, qo'shimcha ma'lumotlar olish maqsadida L.P.Kalininskiyning "Shaxsning tashkilotchilik va kommunikativ sifatlarini baholash" metodikasidan foydalandik. Metodika avtoritar, demokratik va liberal uslubdagi o'qituvchilarning sifatlari taqqoslanib o'rganildi, natijalar 2-jadvalda berilgan.

**2-jadval.**

**Avtoritar va demokratik pedagogik uslubdagi o'qituvchilar natijalarining o'zaro solishtirma ko'rsatkichlari**

№	Sifatlar	Avtoritar	Demokratik	R
1	Yo'nalganlik	4,9 ± 0,46	7,1 ± 1,12	0,75
2	Tashkilotchilik ishiga psixologik tayyorgarligi	7,3 ± 0,71	9,8 ± 0,87	0,82
3	Hukmronlikka intilishi	8,90 ± 52	4,4 ± 0,82	0,7
4	O'ziga ishonch	4,7 ± 0,61	5,5 ± 0,68	0,32
5	Talabchanlik	3,5 ± 0,57	4,9 ± 0,83	0,69
6	Qaysarlik	3,3 ± 0,78	4,6 ± 0,8	-
7	Ko'ngilchanlik	5,3 ± 1,32	6,8 ± 1,49	0,43
8	Tobelik	5 ± 1,21	5,7 ± 1,35	0
9	Psixologik takt	7,1. ± 0,66	8,92 ± 1,25	0,88
10	Hamdardlik hissi	5,7 ± 1,34	7,7 ± 1,11	0,91

Natijalarda demokratik uslubda ish olib borayotgan o'qituvchilarning yo'nalganlik shkalasi (0,75) natijalari avtoritar o'qituvchilarnikiga qaraganda ancha farq qildi. Ularning o'rta qiymatlaridagi farqlar demokratik uslubda ish olib boradigan o'qituvchilarning, intellekti, dunyoqarashi, jamoaning umumiy maqsadlariga erishishga intilishida o'z aksini topgan. Ularning ehtiyojlari umumiy jamoa maqsadlari bilan uyg'unlashgan. Avtoritar uslubda ishlaydigan o'qituvchilarda bu shkalaga aloqador natijalar esa anchagina past. Ishchanlik shkalasi bo'yicha ham natijalar orasida bir muncha farq kuzatildi (0,82). O'ylaymizki, bu sifat o'qituvchilar

uchun muhimdir. Ushbu sifat demokratik ish uslubiga ega o'qituvchilarda bir oz yuqori bo'lsa-da, ammo avtoritar o'qituvchilarda ham bu holda o'ziga xos ko'lamga ega ekan. Psixologik takt shkalasi bo'yicha ham avtoritar va demokratik uslubdagi o'qituvchilarning natijalarida farqlar kuzatildi (0,88). O'qituvchilarning bu shkala bo'yicha ko'rsatkichlari ancha yuqoriligi bilan ajralib turibdi. Avtoritar va demokratik muloqot uslubi egalarida farqlar mavjud bo'lib, ular: demokratik uslubdagi o'qituvchilarning kommunikativlik imkoniyatlari ancha yuqori ekanligida, o'ziga ishonganlik, ishchanlik, talabchanlik va psixologik taktga egaliklarida gavdalandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatining samaradorligi”** deb nomlanib, bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatining empirik natijalari, boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarining psixologik qiyosiy tahlili keltirilgan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun psixologik treningda ishtirok etish shaxsiy va kasbiy rivojlanish hamda psixologik imkoniyatlarni kengaytirish imkoniyatini beradi. Psixologik trening mashg'ulotlarimiz o'qituvchi shaxsini, boshlang'ich sinf o'qituvchidagi kasbiy sifatlarini, dars mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan psixologik mashg'ulotlarni boyitib borishga qaratiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan o'quvchilari munosabatidagi xulqiy va emosional jihatlar samaradorligini oshirish orqali ularning muloqot maromlarida ijobiy o'zgarishlarga erishildi. O'qituvchi bilan o'quvchilar munosabatlaridagi kognitiv komponentlar esa alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish talab etiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchining pedagogik mahorati, qobiliyati va dars mashg'ulotining mazmundorligi omili o'qituvchining kasbiy bilim darajalari, tajribalari bilan belgilanadi. O'qituvchi bilan o'quvchilarning emotsional munosabatlarini aniqlash borasidagi urinishlarimiz jarayonidagi natijalarga muvofiq holda trening dasturini ishlab chiqdik:

Psixotrening mashg'ulot vazifalari:

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatini o'rganish;
- boshlang'ich ta'limda ko'p uchraydigan psixologik muammolarni o'rganish;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy faolligini aniqlash;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilari, o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganish;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilari turli xil psixologik bosimlarni oldini olish malakalariga ega bo'lishi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida olib boriladigan psixotrening mashg'ulotlari haftasiga ikki marta bo'lishi ta'minlandi. Trening bir ish kunida 130 minut davom etadi. Ishtirokchilar 1 ta guruhda 10-15 nafarni tashkil etdi.

O'quvchilarning o'qituvchi bilan o'zaro munosabatlaridagi kommunikativ oraliq ko'rsatkichlari kommunikatorlik sifatida yuqori ijobiy korrelyasion bog'lanishga ega. O'quvchilarning o'qituvchilari bilan munosabat o'rnatishga doimo xohish sezishlari va o'z navbatida ulardan mehr, rag'bat va qo'llab - quvvatlashni kutishlari tabiiy ekan. Haqiqatdan ham boshlang'ich sinflarda o'quvchilar orasida o'qituvchining rag'batiga muyassar bo'lish, o'zi uchun ijobiy timsol hosil qilishga

intilish motivlari ko'p uchraydi, o'quvchilarning kommunikator sifatida ishtirok etish bilan bir qatorda muloqot qabul qiluvchi bo'lishga ham ehtiyojlari yuqori ( $r=0,665$ ;  $p<0,01$ ). Ammo, ushbu holatni butun sinf o'quvchilari orasida uchratish qiyinligini guruhning kommunikativ muhiti bo'yicha bog'lanish hosil qilmaganligi tasdiqlamoqda. 3-jadvalda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan o'quvchilari o'zaro munosabatining kommunikativ muhit oralig'i ko'rsatkichlari keltirilgan.

### 3-jadval.

#### Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan o'quvchilari o'zaro munosabatining kommunikativ muhit oralig'i ko'rsatkichlari orasidagi korrelyasiya koeffitsiyentlari

Mezonlar	O'qituvchi	O'quvchi	Sinfning kommunikativ muhit	Guruhning kommunikativ muhit bo'yicha o'zgarish ko'rsatkichi
O'qituvchi	1	0,665**	0,100	0,147*
O'quvchi		1	0,174*	0,144*
Sinfning kommunikativ muhiti			1	0,756**
Guruhning kommunikativ muhiti bo'yicha o'zgarish ko'rsatkichi				1

Izoh: \* $p\leq 0,05$ ; \*\* $p\leq 0,01$ .

